



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ISFIJOB IN THE INTERPRETATION OF ARAB GEOGRAPHERS: DEFENSE AND URBAN PLANNING

Ma'murov Asadullo Farxodjonovich

1st-year Master's Student Fergana State University

E-mail: asadullofarhodovich22@gmail.com Tel: +99893 1380208

Abstract:

This article analyzes the historical significance of the city of Isfijab (modern-day Sayram), which served as one of the most vital strategic, military, and commercial hubs of Mawarannahr during the Middle Ages, based on Arabic sources. Drawing upon the works of medieval geographers such as Ibn Hawqal, al-Maqdisi, and al-Istakhri, the study highlights the city's unique architectural structure, its defense systems, and its role in regional military campaigns. Furthermore, the reasons behind Isfijab's designation as "Madinat al-Bayda" (the White City) are presented and elaborated upon

Keywords: Isfijab, Madinat al-Bayda, The Nest of Saints, Al-Istakhri, Ibn Hawqal, Al-Maqdisi, At-Tabari, Al-Baladhuri, Utbi, madina (shahristan), rabad (suburbs), kuhandiz (citadel), Farab, Qarluqs, Oghuz, 714 AD, 840 AD, 992 AD.

ISFIJOB ARAB GEOGRAFLARI TALQINIDA: MUDOFAA VA SHAHARSOZLIK.

Ma'murov Asadullo Farxodjonovich

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

asadullofarhodovich22@gmail.com +99893 1380208

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asrlarda Movarounnahrning muhim strategik, harbiy va savdo markazlaridan biri bo'lgan Isfijob (hozirgi Sayram) shahrining tarixda tutgan o'rni, arab manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

davomida Ibn Havqal, al-Maqdisiy va al-Istaxriy kabi geograf olimlarning asarlariga tayanib, shaharning o'ziga xos me'moriy tuzilishi, mudofaa tizimi va mintaqadagi harbiy yurishlarda tutgan o'rni yoritib berildi. Shuningdek, Isfijobning "Madinat al-Bayzo" (Oq shahar) deb atalishiga sabablari keltiriladi va izohlab beriladi.

Аннотация: В данной статье на основе арабских источников анализируется историческая роль города Исфиджаб (современный Сайрам), который в Средние века являлся одним из важнейших стратегических, военных и торговых центров Мавераннахра. В ходе исследования, опираясь на труды таких ученых-географов, как Ибн Хаукаль, аль-Макдиси и аль-Истахри, освещаются уникальная архитектурная структура города, его оборонительная система и значение в военных походах региона. Также приводятся и поясняются причины, по которым Исфиджаб называли «Мадинат аль-Байда» (Белый город).

Kalit so'zlar: Isfijob, Madinat al Bayzo, Avliyolar uyasi, Al Istaxriy, Ibn Havqal, Al Maqdisiy, At Tabariy, Al Balozuriy, Utbiy, madina, rabod, ko'handiz, Forob, qarluqlar, o'g'uzlar, 714-yil, 840-yil, 992-yil.

Ключевые слова: Исфиджаб, Мадинат аль-Байда, Обитель святых, Аль-Истахри, Ибн Хаукаль, Аль-Макдиси, Ат-Табари, Аль-Балазури, Утби, мадина (шахристан), рабад, кухендиз (цитадель), Фараб, карлуки, огузы, 714 год, 840 год, 992 год.

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'zining iqtisodiy qudrati, mudofaa salohiyati va madaniy yuksakligi bilan alohida yuksak o'rin egallagan shaharlar juda ko'p. Biroq, ular orasida Isfijob (yoki qadimgi nomi bilan Sayram) shahri o'zining strategik ahamiyati va "Avliyolar uyasi" degan sharafli nomi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Tarixiy manbalarda "Oq shahar" (Madinat al-Bayzo) deya tariflangan bu ko'hna manzilgoh,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

asrlar davomida Movarounnahrning shimoliy sarhadlaridagi eng mustahkam qal’a hisoblangan va islom madaniyatining yirik markazilaridan biri bo‘lgan.

Isfijob shunchaki shahar emas, balki Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘idagi eng muhim savdo chorrahasi bo‘lib, u g‘arbda Buxoro va Samarqandni, janubda Shosh (Toshkent) viloyatini, sharqda esa Yettisuv va Xitoy o‘lkalarini bog‘lab turuvchi asosiy markaz vazifasini o‘tagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shaharning qulay geografik o‘rni - sersuv daryolar bo‘yida, unumdor yerlarda joylashgani uni nafaqat savdo markaziga, balki yirik hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi vohasiga ham aylanishiga sabab bo‘lgan.

Isfijobning tarix sahifalaridagi eng yorqin sahifasi uning ma’naviy dunyosi bilan bog‘liq. Bu hudud nafaqat savdogarlar, balki olimlar va tasavvuf namoyandalarining ham sevimli maskani bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy dunyoning buyuk mutafakkiri Xo‘ja Ahmad Yassaviy aynan shu shaharda dunyoga kelgani barchamizga ma’lum. Shaharning "Avliyolar maskani" deb atalishi ham bejiz emas. Bu yerda islom olamining ko‘plab nufuzli siymolari qo‘nim topgan va ularning merosi bugungi kungacha saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin.

ASOSIY QISM. Isfijob shahri Binkatning uchdan biriga teng shahardir. U madina, rabod va ko‘handizdan iborat. Ko‘handiz xaroba holatda, madina va rabodda esa hayot qaynaydi. Ichki madinaning atrofida esa devor bor, rabod atrofida ham uni bir farsax uzunlikda o‘rab turadigan devor bor. Uning rabodida oqar suvlar va bog‘lar ham bor.

Uning binolari paxsadan qurilgan, shahar tekislikda joylashgan, u bilan eng yaqin tog‘lar orasidagi masofa taxminan uch farsax keladi. Madinaning to‘rt darvozasi bor. Bu darvozalarning biri Bob Nujkat qolganlari Bob Farxod, Bob Sarokarosa va Bob Buxoro deb ataladi. Madinada ham, rabodda ham uning bozorlari joylashgan. Hukumat saroyi, gomoqxona va jome masjidi ichki madinada joylashgan. Isfijob hosildor va boy



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

shaharlardan hiusoblanadi. Butun Xuroson va Movarounnaxrda, Isfijobdan boshqa xiroj solig‘i olinmaydigan shahar yo‘q. Uning nohiyalaridagi shaharlar: Budahkat, Subonikat, at-Taroz, Atlak, Shalji, Kadar, Sutkand, Shovg‘ar, Sabron va Basij. Subonikat Kanjida viloyatining ma‘muriy markazi, Kadar esa Forob viloyatining ma‘muriy markazidir. Vasij ham Forob viloyatining shaharlaridan biridir. U yerdan qadimgi faylasuflarning kitoblarining ma‘nosini sharhlovchi mantiq, haqidagi kitoblar muallifi Abu Nasr Forobiy chiqqan bo‘lib, u shu fan sohasi bo‘yicha zamonamizdagi, asrimizdagi va hozirgi kunimizdagi eng mashxur olimdir.

Sabron shahrida guzlar(o‘g‘uzlar) tinchlik bo‘lgan vaqtda sulh tuzish, yarashish va tijorat qilish uchun to‘planadilar. Bu juda mustahkam shahardir. Forob uzunligi va eni bir kunlik yo‘ldan kamroq bo‘lgan nohiyadir. Unda harbiy kuch va odamlarning soni ko‘p. Bu nohiyadagi tuproq, sho‘r bo‘lib, unda chakalakzorlar mavjud. Ekinzorlar ash-Shosh daryosidan suv oluvchi bir daryo vodiysida joylashgan.

Sutkand ash-Shosh daryosining g‘arb tomonida joylashgan. Unda minbar bor. Bu turklarning to‘planadigan yeridir. Ulardan ba‘zilari islom dinini qabul qilgan. Islom yo‘liga guzlar va qarluqlarning bir qismi kirgan. Ular turklarga qarshilik ko‘rsatishda shijoatli va qudratlidirlar. Forob, Kanjida va ash-Shosh o‘rtasida xosildor yaylovlar joylashgan bo‘lib, ularda islom dinini qabul qilgan turklarning mingga yaqin uylari bor. Ular o‘z udumlariga binoan qurilgan o‘tovlarda yashaydilar. Ularda hech qanday binolar yo‘q.

at-Taroz musulmon bo‘lgan turklarning savdo qiladigan yeridir. Turklarning yerlarida at-Tarozga qarashli istehkomlar joylashgan. Islom mamlakatlaridan hech kim u yerdan nariga o‘tmagan, chunki undan nariga o‘tgan yo‘lovchi qarluqlarning o‘tovlariga kirib boradi. Bu nohiyaning yuqorida zikr etilgan shaharlari ash-Shosh viloyati va uning chekkalariga kiradi.[1:75-77-b]



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Bundan tashqari Al Maqdisiyning zamondoshi bo'lgan tarixchi olim Al Istaxriyning yozishiga ko'ra, Isfijob shahri o'g'uzlar va qarluqlar o'rtasidagi chegarani ham belgilab bergan. Unga ko'ra o'g'uzlar hududi Isfijobdan shimolda bo'lgan, Orol dengizidan Kaspiygacha cho'zilgan, Qarluqlar hududi Isfijobdan Farg'ona vodiysigacha yoyilgan.[2. 150-165]

Tarixchi Bartold Al Muqaddasiyga tayanib aytadiki, Markaziy Osiyodagi musulmon mulklariga qo'shni bo'lgan, Kaspiy dengizidan Isfijobgacha bo'lgan mamlakatda o'g'uzlar yashagan, Isfijobdan Farg'onagacha esa qarluqlar yashagan. Bundan Bartold shunday xulosaga keladiki Al Muqaddasiyning turkmanlari, ham o'g'uzlarni ham qarluqlarni o'z ichiga oladi.(Al Muqaddasiy ikki turkiy xalq, o'g'uzlar va qarluqlarni turkmanlar deb atagan edi). [3. 555-558]

Isfijob shahri tarixda muhim janglarga guvoh ham bo'lgan. Isfijob shahrining mudofasi juda yuqori darajada bo'lgan. Tarixchi olim ibn Havqal shunday yozadi Isfijob va uning atrofida 1700 ta rabot bo'lib, ular kofir turklarning hujumini qaytarish uchun qurilgan. Isfijob ko'chmanchi va o'troq aholi to'qnashgan hudud hisoblanadi. Shu sababi bu yerda yirik siyosiy to'qnashuvlar , harbiy yurishlarlar bo'lib turgan. Ushbu to'qnashuvlarning ba'zilar shaharning taqdirini ham hal qilgan. Tarixchi olim At-Tabariyning "Tarixi rusul val-muluk" (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asarida arab qo'shinlarining Turkiston ichkarisiga qilgan ilk yurishlari va Isfijob hududidagi to'qnashuvlar batafsil yoritib berilgan. Mashhur arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim 714-yilda Shoshdan (Toshkentdan) shimolga qarab yurish qilish uchun yo'lga chiqadi va Isfijobni egallashga muvoffaq bo'ladi. Ammo, arablar bu yerda uzoq qola olmaydilar va shahar yana mahalliy hokimlar qo'lga o'tadi.[4]

Bundan tashqari 840-yil yuz bergan voqea, shahar tarixidagi eng burilish yasagan voqea hisoblanadi. Somoniylar hukmdori Nuh ibn Asad boshchiligidagi qo'shin



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Isfijobni ko'chmanchi turk qabilalaridan tortib olishga muvoffaq bo'ladi. Bu yurishdan so'ng Isfijob islom olamining shimoliy istehkomiga aylantiriladi. Nuh ibn Asad ko'chmanchilarning (turkiy qabilalarning) doimiy hujumidan himoya qilish uchun Isfijob va uning atrofidagi viloyatlarni (Shosh va b.) mudofaa devori bilan o'rash haqida buyruq beradi va shahar mudoofa devri bilan o'rab chiqiladi. Bu haqida Al-Balazuriyning "Futuh al-buldon" (Mamlakatlarning fath etilishi) asarida to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Somoniylarning Isfijobni egallashi haqida va u yerda qurilgan mustahkam istehkomlar haqida muhim ma'lumot ham keltirib o'tiladi.

Keyingi davrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ilk o'rta asrlarning so'nggi bosqichida Isfijob yana yirik ikki sulola o'rtasidagi urush maydoniga aylanadi. 992-yilda Qoraxoniylarning mashxur hukmdori Bug'raxon Movarounnahrda yurish qiladi. Isfijob shahri bu paytda Somoniylar tasarrufida bo'lsa-da, uning hokimi o'zaro nizo tufayli Qoraxoniylar tomoniga o'tib ketgan edi. Bu holat Somoniylar davlatining inqiroziga olib kelgan muhim siyosiy voqea bo'lgan. Bu voqea haqida Utbiyning "Tarixi Yaminiy" asaridan ma'lumot olishimiz mumkin. Ushbu manbada Somoniylar davlatining so'nggi yillari va Isfijob hududidagi harbiy-siyosiy jarayonlar batafsil yoritib berilgan. Ilk o'rta asrlarda Isfijob atrofida ro'y bergan janglarning asosiy qismi rabotlarda (chegara qal'alarida) bo'lgan. [2.57-62]

Bu janglar va voqealar Isfijobning nafaqat savdo shahri, balki asrlar davomida strategik harbiy qal'a bo'lganini ham isbotlab beradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan, Isfijob (Sayram) shahrining o'rta asrlar tarixida tutgan o'rni bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin: Isfijob Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegarasida "islom qal'asi" vazifasini o'tagan va ko'plab arab manbalarida, xususan, al-Istaxriy asarlarida shahar ko'chmanchi turk qabilalari (qarluq va o'g'uzlar) hujumidan himoya sifatidagi eng muhim harbiy hudud



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

sifatida qaralgan. Isfijobning "Madinat al-Bayzo" (Oq shahar) deb atalishi uning pishiq g'isht va oq ohakdan qurilgan muhtasham binolari, shuningdek, toza va tartibli me'moriy tuzilmaga ega ekanini ko'rsatib beradi. Shahar uch qismdan (ark/ko'handiz, madina/shahriston va rabod) iboratligi esa, o'z davrining mukammal mudofaa tizimiga ega ekanidan darak beradi.. Ba'zi manbalarda bu shaharning "Avliyolar uyasi" deb ta'riflanishi ham uning nafaqat harbiy, balki yirik diniy va ma'rifiy markaz bo'lganini isbotidir. Bu hududda islom ilmlari rivojlanib, keyinchalik mashhur bo'lgan ko'plab allomalar (masalan, Ahmad Yassaviyning ota-onalari va ajdodlari) aynan shu muhitda kamol topgani ham ma'lum.

Yakuniy xulosa shuki, Isfijob VIII–X asrlarda Movarounnahrning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy yuksalishiga sabab bo'lgan eng asosiy "shahar-davlat" namunasidagi markazlardan biri bo'lib xizmat qilgan deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI

1. Мовароуннахр/Ибн Хувцал; араб тилидан тарж., изохлар муаллифи Ш.С.Камолитдин, масъул мухаррир Ф .С. Хусанов. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий ашриёти, 2011.— 400 бет.

2. Аҳмедов Бўрибой. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар): Тарих муаллимлари, талабалар ва юқори синф ўқувчилари учун қўлланма. — Т.: «Ўқитувчи», 2001. — 352 б

3. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения, Том I. — Москва: Наука, 1963.

4. At-Tabariy, Abu Jafar. Tarix ar-rusul va-l-muluk. – Toshkent: Fan, 1987

5. Balozuriy, Ahmad. Futuh al-buldon (Mamlakatlarning fath etilishi). – Toshkent: Sharqshunoslik instituti manbalari.